

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI  
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

**“TASDIQLAYMAN”**

**Ilmiy ishlar va xalqaro  
aloqalar bo'yicha prorektor  
R. Shirinova**

**2026-yil**



**22.00.03 – “Ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi”  
ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kirish imtihoni**

**DASTURI**

**TOSHKENT – 2026**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Ilmiy-uslubiy kengashining 2025-yil 27-oktyabrdagi 2-sonli majlis bayonnomasi bilan ma’qullangan.

**Tuzuvchilar:**

M.B.Bekmurodov – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, sotsiologiya fanlari doktori

B.Sh.Karimov – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, sotsiologiya fanlari doktori

**Taqrizchilar:**

T.B.Matibayev – sotsiologiya fanlari doktori, professor

A.B.Yunusov – sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

## KIRISH

“Ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi” ixtisosligi nazariy va metodologik kursi mazkur sohada ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur kurs bo‘lajak fan doktorini o‘zi tanlagan mutaxassisligi kursiga oid fundamental nazariy bilimlar, asosiy tushunchalar, ta’riflar va qoidalar sohasini jahon andozalari darajasida o‘zlashtirishga imkon beradi.

O‘zbekiston-2030” strategiyasiga muvofiq mutaxassislik bo‘yicha oliy o‘quv yurti hamda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim (tayanch doktorantura va doktorantura, mustaqil izlanuvchilik) jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan bilimlar doirasini qamrab olgan.

Shuningdek, dasturda oxirgi yillarda “Ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi” kursi sohasida jahon miqyosida erishilgan yangi ilmiy ishlanmalar, nazariy-metodologik qarashlar va ayni paytda, butun dunyoda, shu jumladan, mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar kishilar ongli faoliyatining mahsuli ekanligi, biz ijtimoiy ongning turli shakllarini maxsus tadqiqotlar orqali tadqiq qilib borishimiz o‘ta muhim ahamiyat kasb etishini e’tibordan chetda qoldirishimiz mumkin emasligi nazarda tutildi.

Dastur mazmunidan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak fan doktoridan “Ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi” ixtisosligining maqsadi, mazmun-mohiyati, strukturasi, metod va metodologiyalari kabi tavsiflari haqida yetarli darajada tasavvurga ega bo‘lish talab etiladi. Bundan tashqari, tadqiqotchi ixtisoslikning mavzulari bo‘yicha muhim tadqiqotlarni olib borgan mumtoz sotsiologiya vakillarining ilmiy merosidan to‘laqonli ravishda xabardor bo‘lishi lozim.

Dastur doktorant va mustaqil izlanuvchilar ongini dunyoviy bilimlar bilan boyitish, ularda ijtimoiy-gumanitar fanlarning turli sohalariga bo‘lgan qiziqishni orttirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda ijtimoiy hayotning hamma sohaları uchun zamon talablariga javob beradigan doktorant-izlanuvchilarni tayyorlash sotsiologiya fanida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu kursni o‘rganish natijasida bo‘lajak fan doktorlari ijtimoiy soha hamda u bilan uzviy aloqador bo‘lgan ijtimoiy jarayonlar mazmun va mohiyatini bilib oladilar va ulardan amalda foydalanish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Jamiyatda kechayotgan turli-tuman hodisa va voqealarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rganadilar. Ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi sohasining bo‘lajak fan doktorlari o‘zlarining ishlab chiqarish, ilmiy hamda pedagogik faoliyatlarida, shu jumladan, ilmiy tadqiqot maqsadlarida jamiyatda kechayotgan turli xil jarayonlarni keng qamrovli tarzda tadqiq etishlari mazkur fan kategoriyalari va qonunlariga tayangan holda o‘z ilmiy xulosalarini ilgari sura oladilar. Bunda ular oliy ta’lim muassasalarida tegishli fanlardan dars mashg‘ulotlarini o‘tkazishlarida sotsiologiyadan to‘plagan bilimlariga tayanadilar. Shu jihatdan mazkur nazariy-metodologik kurs yuqori malakali ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash tizimining ajralmas qismidir.

Zamonaviy ijtimoiy hayotning murakkab hodisa va jarayonlarini ilmiy tushunish amaliy faoliyatda sotsiologik bilim va metodlardan foydalanish malakalarini shakllantirishdan iborat.

- ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi fani ob‘yekti, predmeti, asosiy tushuncha va kategoriyalarini mohiyatini tushuntirish;

- sotsiologiyaning jamiyat hayotidagi o‘rni, funksiyalari, ahamiyati to‘g‘risida batafsil ma’lumot berish;

- ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasining asosiy maktab va yo‘nalishlari bilan tanishtirish;

- ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi fanining asosiy qonun va tamoyillarining umumiy hamda xususiy jihatlarini ko‘rsatib berish;

- amaliy sotsiologik tadqiqot metodlari va dasturi to‘g‘risida muayyan tasavvur uyg‘otish;

- shaxs, ijtimoiy guruh, ijtimoiy jamoalarga xos belgi va xususiyatlar hamda ularning mohiyatini ochib berish;

Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy stratifikatsiya, ijtimoiy mobillikning mohiyati va mazmunini ochib berish orqali doktorant-izlanuvchilarga jamiyatda bo‘layotgan ijtimoiy jarayon, hodisalarni

ilmiy tahlil etish zaruriyatini singdirish hamda ularda ushbu bilimlardan amalda foydalana olish bo'yicha malaka va tajriba hosil qilish – fanning asosiy maqsadidir.

“Ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi” fani demografiya, antropologiya, ekologiya va tabiiy fanlar bilan ham o'zaro aloqaga ega. Ayniqsa, bu holat matematik fanlar bilan ham o'zaro munosabatda yaqqol namoyon bo'ladi, chunki maxsus imtihon usullarisiz empirik tadqiqotlarni o'tkazishning iloji yo'q.

Tadqiqotchilar kirish imtihonini o'zlashtirish jarayonida:

- ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasini fan sifatida shakllanish omillari, uning tadqiqot ob'yekti va predmeti, strukturasi va fanlar tizimidagi o'rni, jamiyatning yaxlit ijtimoiy tizimligi, shaxs va jamiyat munosabatlari, ijtimoiy hayotning dolzarb muammolari, jamiyat a'zolarining shaxsiy va ijtimoiy faoliyatini muvofiqlashtiradigan ijtimoiy institutlar faoliyati haqida atroflicha bilimlarni o'zlashtirgan bo'lishi kerak;

- “Ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi” fanining turli yo'nalishlardagi nazariy-metodologik asoslari, fanning asosiy tushuncha, kategoriyalari va qonunlari, shaxs va uning ijtimoiylashuvi jarayoni, ijtimoiy guruhlar tasnifi, jamiyat a'zolarining ijtimoiy mavqei, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ma'lum bir qonuniyatlar asosida kechishi, jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy siyosiy jarayonlarning o'zaro bog'liq ekanligini yaxlit idrok etishi hamda jamiyat rivojining asosiy omillarini tasniflay olishni bilishi va ulardan foydalana olishi;

- zamonaviy jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy hodisalarni to'g'ri tavsiflash, turli ijtimoiy-madaniy xususiyatda kechayotgan hodisalarni xolis qiyosiy taqqoslash, zamonaviy jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolardan ustuvorligini aniqlash va ularni

- ob'yektiv tahlil qilish, muayyan hodisa va voqealarga kishilarning shaxsiy munosabatlarini o'rganishga qaratilgan empirik tadqiqotlarda ishtirok etish, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarida o'tkazilgan amaliy sotsiologik tadqiqotlar natijalaridan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Dasturdagi mavzu va masalalar “Ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi” ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktor (DSc) ligiga da'vogarlarining faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki muammolar va ularning yechimlarini topish bo'yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishni ham talab qiladi.

Mazkur masalalar bo'yicha nazariy muammolar falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)ligiga da'vogarlarining shaxsiy qarashlari shakllanishini yuzaga chiqarishga qaratilgan.

Dastur 22.00.03 – “Ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi” ixtisosligi pasportiga tegishli bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ushbu dastur 22.00.03 – “Ijtimoiy ong va ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi” ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgor doktorant va mustaqil izlanuvchilar uchun mo'ljallangan.

## **JAMIYAT SOTSIAL STRUKTURASI VA STRATIFIKATSION JARAYONLAR**

“Sotsial struktura” tushunchasi. Kishilik jamiyati tarixida sotsial struktura muammosining talqini. Sotsial struktura to‘g‘risidagi antik davr mutafakkirlarining ta‘limotlari. P.Sorokinning sotsial stratifikatsiya to‘g‘risidagi nazariyasi. Stratifikatsiya asoslari va mezonlari: iqtisodiy holati, mavqei, ta‘lim va hokimiyat. Stratifikatsiya va sotsial differentsiatsiya. Stratifikatsion tizimlar: qullik, kasta, klan va sinf. Ochiq va yopiq tizimlar.

Sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik nazariyasi sinfiylik ta‘limotiga qarshi g‘oya sifatida. Jamiyat sotsial strukturasi rivojining zamonaviy tendensiyalari. Bozor munosabatlari sharoitida sotsial strukturaning o‘zgarishi. Zamonaviy O‘zbekistonda sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik jarayonining kechishi.

Sotsial mobillik to‘g‘risidagi sotsiologiya klassiklari: M.Veber, E.Giddens, T.Parsons, P.Sorokin va boshqalarning qarashlari. Mobillik belgilari. Mobillik turlari: gorizontaal va vertikal sotsial mobillik. Guruhiy va individual mobillik. Avlod ichidagi va avlodlar o‘rtasidagi sotsial mobillik. Strukturaviy sotsial mobillik. Jamiyatda sotsial mobillik yo‘llari. Mobillikning demografik omillari. Migratsiya va uning tarixiy shakllari. Emigratsiya va migratsiya. Mehnat va iqtisodiy migratsiya. Xorijiy ishchi kuchlar bozori. “Aqllar oqimi”.

### **IJTIMOYIY MUNOSABATLAR**

“Sotsial munosabatlar” tushunchasi. Sotsial munosabat turlari: hamfikrlik, kooperatsiya, konfliktlar, kurash, begonalashuv, befarqlik, krizis, kamsitish, tengsizlik. Sotsial munosabatlar tizimidagi plyuralizm. Sotsial munosabatlarning asoslari.

Hamfikrlik, barqarorlik va kooperatsiya sotsial tizimlar muvaffaqiyatli ishlashining omillari sifatida. E.Dyurkgeym konsepsiyasida “hamfikrlik” tushunchasi. Kooperatsiya ijtimoiylikning asosiy belgisi sifatida. Pozitivizm sotsiologiyasida barqarorlik va inqiroz ongi. Barqarorlikni strukturaviy-funksional asoslash.

Begonalashuv va tanazzul. E.Dyurkgeymning anomiya (qonunsizlik) konsepsiyasi, F.Tennis, M.Veber, G.Zimmel, ekzestensial va fenomenologik sotsiologiya asoschilari ta‘limotlarida begonalashuv va jamiyatdagi krizislarning o‘zaro aloqadorligi to‘g‘risidagi fikrlari. Begonalashuv turlari va ularning ijtimoiy oqibatlarini. Tenglik va plyuralizm ijtimoiy tuzum tamoyillari sifatida. Milliy g‘oya va milliy mafkuraning sotsial munosabatlar tizimida tutgan o‘rni.

### **IJTIMOYIY TARAQQIYOT SOTSIOLOGIYASI**

Sotsiologiyada “ijtimoiy taraqqiyot” tushunchasi. “Ijtimoiy o‘zgarish” va “taraqqiyot” tushunchalarining nisbati. Ijtimoiy progress, regress, evolyutsiya va revolyutsiya ijtimoiy o‘zgarishlarning shakli sifatida.

Ijtimoiy progress muammolari. Ijtimoiy taraqqiyot shakllari: evolyutsion, revolyutsion va reformistik taraqqiyotlar. Evolyutsion rivojlanish va uning afzalliklari. Sotsial revolyutsiyalar va ularning salbiy oqibatlarini. Sotsial reformalar va ularning turlari. O‘zbek rivojlanish modelida milliy mentalitetning o‘rni. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida milliy tafakkur tarzining ahamiyati.

O‘zbekistonda davlat hokimiyati va boshqaruvni demokratiyalashtirish jarayonlarining o‘ziga xosligi. Ijtimoiy taraqqiyotni boshqarish. Menejment va uning xususiyatlari. Global ijtimoiy-iqtisodiy tanazzullar va ularning ijtimoiy taraqqiyot jarayonlariga salbiy ta‘siri. O‘zbekiston ijtimoiy-madaniy xususiyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy tanazzulga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishdagi ahamiyati.

### **DINNING SOTSIOLOGIK NAZARIYALARI**

Din va jamiyat integratsiyasi. Din va sotsial o‘zgarishlar. Dinning umumiylik va xususiylik jihatlaridagi sotsiologik talqini. Din va sotsial birdamlik. E.Dyurkgeym tomonidan din va sotsial birdamlik o‘zaro aloqalarining tadqiq etilishi. Dinning struktur-funksional tahlili. Din va sotsial

konfliktlar. Neoevolutsionizm. G'arbiy Yevropa sotsial tafakkurida dinga bo'lgan turli munosabatlar. Din va ijtimoiy barqarorlik.

### **DIN VA BOSHQA SOTSIAL INSTITUTLAR MUNOSABATI**

Din eng ko'hna sotsial institut sifatida. Iqtisodiy institutlar, ularning ko'rinishlari va vazifalari. Din va iqtisod. Tadbirkorlik faoliyati rivojiga diniy qadriyatlarning ta'siri. Diniy tashkilotlar va davlat boshqaruv organlarining o'zaro hamkorligi. Din va siyosat. Din arkonlaridan g'araz siyosiy maqsadlarda foydalanish oqibatlar. Din va oila hamda nikoh institutlari hamkorligi. Din va huquq instituti munosabatlari. Din va axloq institutlari o'zaro aloqalari.

### **GLOBALASHUV SHAROITIDA DINIY ONG AHAMIYATINING OSHISHI**

“Dinning barham topishi” nazariyalari va ateistik tarbiyaning tanazzuli. Huquqiy qonunbuzarchiliklar: korrupsiya, giyohvand moddalarni yetishtirish, tarqatish va iste'mol qilish, alkogolizm, odam savdosi kabi ijtimoiy xavfli illatlarni bartaraf qilishda dinning sermahsul faoliyati. «Ommaviy madaniyat»ning salbiy ta'siriga qarshi kurashishda diniy e'tiqod salohiyati. Diniy ratsionalizm - g'ayriinsoniy hodisalar: bir jinsli nikohlar, klonlashtirish kabilarni vujudga kelishining ishonchli to'sig'i. Jahon hamjamiyatining yangi geosiyosiy manzarasida din omili rolining yuksalishi.

### **TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR**

Ta'lim sotsial institut sifatida. Uning taraqqiyoti va shakllari. Umumiy, o'rta-maxsus va oliy ta'lim. Oliy ta'lim va fan: tarkibi va ilmiy-pedagogik kadrlar. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi va Yevropa hamda AQSh universitetlari: umumiylik va xususiylik. Ta'lim tizimidagi islohotlar: tajriba va istiqbol. O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlar. O'zbekistonda ta'lim to'g'risidagi qonun. Uzluksiz ta'lim tizimi. Uning mazmuni. Ta'limning vazifalari va masalalari.

### **JAMIYAT SOTSIAL STRUKTURASI VA STRATIFIKATSION JARAYONLAR**

“Sotsial struktura” tushunchasi. Sotsial struktura to'g'risidagi antik davr mutafakkirlarining ta'limotlari. P.Sorokinning sotsial stratifikatsiya to'g'risidagi nazariyasi. Stratifikatsiya asoslari va mezonlari: iqtisodiy holati, mavqei, ta'lim va hokimiyat. Stratifikatsion tizimlar: qullik, kasta, klan va sinf. Ochiq va yopiq tizimlar.

Sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik nazariyasi sinfiylik ta'limotiga qarshi g'oya sifatida. Zamonaviy O'zbekistonda sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik jarayonining kechishi.

Sotsial mobillik to'g'risidagi M.Veber, E.Giddens, T.Parsons, P.Sorokin va boshqalarning qarashlari. Mobillik turlari: gorizonta va vertikal sotsial mobillik. Mobillikning demografik omillari. Migratsiya va uning tarixiy shakllari. Emigratsiya va migratsiya.

### **O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI, UNING ELEMENTLARI VA STRUKTURASI**

“Fuqarolik jamiyati” tushunchasi. Fuqarolik jamiyatining asosiy elementlari tahlili. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishining o'ziga xosligi, “O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”. Sotsial tengsizlik jarayonlarining chuqurlashuvi va dinamikasi.

### **JAMIYATNING BARQAROR TARAQQIYOTI BOSHQARUV VAZIFASI SIFATIDA**

Jamiyat taraqqiyotining samarali yo'llari va barqaror taraqqiyot talablari. Barqaror taraqqiyotning asosiy maqsadlari; Aholi farovonligini oshirish, odamlar hayoti darajasini yaxshilash, har bir insonning ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, yosh avlodning barcha qobiliyat va imkoniyatlarini amalga oshirish. Barqaror taraqqiyotni ta'minlashda hokimiyat va jamiyat hamkorligi. O'rta mulkdorlar tabaqasi va jamiyatning barqaror taraqqiyoti. Samarali boshqaruvni amalga oshirishda boshqaruv elitasining o'rni va ahamiyati.

## **SOTSIAL SIYOSAT**

Siyosiy ong siyosiy jarayon mexanizmlarining refleksatsiyasi sifatida. Siyosiy ong tushunchasi. Ochiq va yopiq turdagi siyosiy ong. Siyosiy ong shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari: haqiqiylikni tanqidiy anglash, partiya yoki ijtimoiy-siyosiy harakatlarning maqsadlarini anglash, fuqaroviy xulq-atvor me'yorlari va shakllantirilgan baholarga qo'shilish. Siyosiy ong funksiyalari: kognitiv, mafkuraviy, kommunikativ, bashorat, tarbiya.

## **SIYOSIY MADANIYAT**

Siyosiy madaniyat ijtimoiy-siyosiy jarayonlar funksionallashuvining sharti va natijasi sifatida. "Siyosiy madaniyat" tushunchasi. Madaniyat va siyosatning o'zaro munosabati. Madaniyat va siyosatning sivilizatsion darajadagi o'zaro ta'siri: G'arbiy xristian, Pravoslav xristian, Hind, Uzoq Sharq, Islom. G'arb va Sharq – o'zaro ta'siri va rivojlanishi.

Siyosiy madaniyat darajalari. Siyosiy madaniyat turlari: patriarxal, faol. Submadaniyat. Siyosiy submadaniyat: paydo bo'lish tamoyillari va faoliyati. Siyosiy madaniyat va din. Islom sivilizatsiyasi.

## **SIYOSIY IJTIMOYILASHUV**

"Siyosiy ijtimoiylashuv" tushunchasi. Siyosiy ijtimoiylashuv siyosiy subyektning shaxsiy fazilatlariga ega bo'lish va ularni yo'qotish jarayoni sifatida. Siyosiy ijtimoiylashuv bosqichlari: birlamchi va ikkilamchi. Birlamchi bosqich birlamchi turkumlar tavsifi sifatida: qabul qilish, personalizatsiya, idealizatsiya, institutsionalizatsiya. Shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi turlari va modellari: garmonistik, gegemonistik, plyuralistik, nizoviy.

## **IQTISODIY SIYOSAT**

Iqtisod va hokimiyat; uning hamjihatlik munosabatlarning o'ziga xos turi "o'xshashlik", hokimiyatning taqsimlanishi va xususiylik. Iqtisodni boshqarish shakllari. Iqtisodiy siyosatning maqsadi. Hokimiyatning iqtisodiy roli. Hokimiyat iqtisodiy boshqaruvning asosiy modeli.

## **O'ZBEKISTONNING IJTIMOY SIYOSATI**

Sotsial siyosat tushunchasi va uning maqsadi. Uning asosiy vazifasi va funksiyasi. Sotsial siyosatning sotsial adolat bilan aloqadorligi. Sotsial siyosatning amalga oshishi – konservatizm, liberalizm, sotsializm, sotsial-demokratizm. Sotsial siyosatning sub'yekti. Davlat sotsial siyosat sub'yektining roli sifatida.

## **IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTDA G'OYA VA MAFKURA**

Siyosiy mafkura davlat tuzumiga qarashli tizim sifatida "Siyosiy mafkura" tushunchasi. Siyosiy mafkuraning ko'rinishlari: konservativ, radikal, liberal. Siyosiy mafkuralarni tarqatish usullari. Siyosiy mafkura va siyosiy xulq-atvor. Turli jamiyatlarda siyosiy mafkura.

Siyosiy mafkura davlat tuzumiga, ijtimoiy imkoniyatlar va siyosiy hokimiyatni taqsimlash usuliga, shaxs erkinligiga bo'lgan qarashlar tizimi sifatida. Siyosiy mafkura sub'yektlari: siyosiy partiya va harakatlar, siyosiy oligarxiya, siyosiy elita. Siyosiy mafkuraning yoyilish usullari. Siyosiy mafkuralar va ijtimoiy fikr. Siyosiy mafkuralar va ijtimoiy-siyosiy o'zaro ta'sir sub'yektlarining siyosiy fe'l-atvori. Sotsiomadaniy qoidalar va siyosiy mafkura. An'anaviy jamiyatda siyosiy mafkura. Zamonaviylashgan jamiyatda siyosiy mafkura. O'ta sanoatlashgan jamiyatda siyosiy mafkura.

## **IJTIMOY-DEMOGRAFIK SIYOSAT**

Ijtimoiy sharoitning mohiyati va jamiyatning ijtimoiy sharoiti bilan uning aloqadorligi. Ijtimoiy sharoitda ikki guruh munosabatlari – ijtimoiy guruhlar o'rtasida. Jamiyatning "ijtimoiy struktura tushunchasi" va uning me'zonlari.

## **DAVLAT TUZUMI VA DAVLAT SIYOSATI**

“Davlat” tushunchasi. “Davlat tuzumi” tushunchasi. “Davlat tuzumi” va “konstitutsion tuzum” tushunchalarining o‘zaro munosabati. Davlat mexanizmini boshqarish tuzilmasi (O‘zbekiston misolida). “Davlat tuzumining barqarorligi” tushunchasi. Barqarorlik davlatni qaror qabul qilishi va uning bajarilishini kuch ishlatmagan holda ta‘minlash usuli sifatida. Qonuniylik davlatni mavjud institutlarning samaradorligi to‘g‘risida jamiyatda ishonchni shakllantirish qobiliyati sifatida.

“Huquqiy davlat” va “fuqarolik jamiyati” tushunchalari. Huquqiy davlatning farqli tomonlari. Ijtimoiy va huquqiy tamoyillar nisbati.

Boshqaruv shakllari: parlamentar respublika, prezidentlik respublikasi, yarimpresidentlik respublikasi. Hududiy tuzilish: unitar davlat, federatsiya, konfederatsiya.

## **MADANIYAT VA SIVILIZATSIYA**

“Madaniyat” va “sivilizatsiya” tushunchalarining o‘zaro munosabati va ularning aloqadorligi. Tarixiy jarayonning davriyligi N.Berdiyev, O.Shpengler, A.Toynbilarning sivilizatsiya nazariyalari. Sivilizatsiyaning strukturasi. Sivilizatsiya dinamikasi. Sivilizatsiyaning almashish mexanizmi. Dunyoviy va mahalliy sivilizatsiya. Mahalliy sivilizatsiyaning tarixiy - madaniy turlari.

## **MADANIYAT VA HULQ - ATVORNING ME’YORIY REGULYATSIYASI**

Xulq - atvorning institutlashgan va institutlashmagan darajasining muntazam tartibga solinishi. “Ijtimoiy me’yor” tushunchasi. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy me’yorlar, an’analar, urf-odatlar va modalar ta’sirining o‘ziga xosligi. Qadriyatlar. Qadriyatlar ob’yekt sifatida, Qadriyat ob’yektga munosabat sifatida, qadriyat hulq-atvor va qaror qabul qilish mezoni sifatida. Zamonaviy o‘zbek jamiyatida yangi qadriyatlar. Madaniy fundamentalizm. Madaniy kolonizatsiya. Ijtimoiy madaniyatning o‘zgarishi.

## **IJTIMOIIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA MADANIYATNING TUTGAN O‘RNI**

Ijtimoiy islohot va madaniyatlarning o‘zaro munosabati. Madaniyat mafkura sifatida. O‘zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi madaniyat fenomeni sifatida. Milliy kadriyatlarning tiklanishi.

Milliy o‘zlikni anglashning shakllanishi. Madaniyatning o‘zaro munosabati va madaniyatning ijtimoiy o‘sish sharoiti. Bozor munosabatlari va kommersionlash sharoitiga o‘tishda jamiyatni texnikalashtirish va madaniyatning o‘zaro munosabati. Kompyuterlashtirish va uning sotsiomadaniy oqibatlari.

## **IJTIMOIIY JARAYONLAR VA ULARNING GLOBALLASHUVI**

“Sotsial jarayon” tushunchasi. Ijtimoiy va madaniy jarayonlar. Kashfiyot va ixtiro. Innovatsiya va uning namoyon bo‘lishi. Innovatsiyalarning sotsial oqibatlari. Sotsial jarayon turlari: kooperatsiya, konkurensiya (raqobat), moslashish, kompromiss, assimilyatsiya, sotsial chegaralarni saqlash, sotsial aloqa tizimlarini o‘rnatish. Sotsial jarayonlarning globalizatsiyasi. XXI asrda sivilizatsiya taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari. Sotsial taraqqiyot shakl va darajalarining turli-tumanligi. XXI asrda urbanizatsiya jarayonining chuqurlashuvi, megopolislarning rivojlanishi. Zamonaviy jamiyatda altruizm, hamdardlik, hamfikrlik va tolerantlik (bag‘rikenglilik) muammosi. Sotsial munosabatlarning kriminallasuvi. XXI asrda urush va tinchlik muammosi. Millatlararo, dalatlararo va dinlararo to‘qnashuvlar. Xalqaro terrorizm. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy modeli. Jamiyat rivojining barqaror modeli. Hozirgi zamonda o‘zbek jamiyati rivojining sotsiomadaniy xususiyatlari.

## **IJTIMOIIY ONG VA IJTIMOIIY JARAYONLAR IXTISOSLIGI MUAMMOLARINI TADQIQ ETISH METODLARI**

Umumilmiy metodlar (induksiya, deduksiya, analiz, sintez, tarixiylik, qiyosiy va boshqalar) hamda ularni sotsiologiyada qo'llashning o'ziga xosligi. Maxsus-sotsiologik va empirik metodlar. Sotsiologik tadqiqot dasturi. Sotsiologiyadagi ma'lumotlarni to'plash metodlarining umumiy tasnifi. So'rov metodi. So'rovning turlari. Anketa (so'rov varaqasi) so'rov metodining markaziy elementi sifatida. Anketa tuzish texnikasi. Og'zaki so'rov va uning xususiyatlari.

Kuzatish metodi va uning mohiyati. Kuzatish xillari. Kuzatishning aniqligi muammosi va uni ta'minlash usullari.

Hujjatlarni o'rganish metodi. Sotsiologiyada "hujjat" tushunchasi, uning turlari. Kontent-tahlil hujjatlarni o'rganish metodining bir turi sifatida. Eksperiment metodi.

**22.00.03 – “IJTIMOIY ONG VA IJTIMOYIY JARAYONLAR SOTSILOGIYASI”  
IXTISOSLIGI BO‘YICHA NAMUNAVIY  
SAVOLLAR**

1. Sotsiologiya fanining ob‘yekti va predmeti.
2. Sotsiologiyaning asosiy vazifalari.
3. Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi omillari.
4. Platonning ideal jamiyat qurish g‘oyasi.
5. Sharq mutafakkirlarining (Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn-Sino, va boshqalar) ijtimoiy-falsafiy qarashlari.
6. Abu Nasr Forobiy asarlarida tafakkur masalalarining yechimi.
7. Fanda tafakkurning materialistik talqini.
8. Tafakkur masalalarining idealizm ta’limotidagi tahlili.
9. M.Veber asarlarida tafakkur masalalarining yoritilishi.
10. Fenomenologik sotsiologiya yo‘nalishi tafakkur haqida.
11. O.Kont pozitivistik ong haqida.
12. G.Spenserning evolyutsionistik nazariyasi.
13. E.Dyurkgeym asarlarida ijtimoiy ong muammolari tahlili
14. M.Veberning ratsionalistik ta’limoti
15. Tafakkur tarzi sotsiologiyasi-sotsiologiya fanining muhim maxsus yo‘nalishi sifatida
16. Tafakkur tarzi ijtimoiy taraqqiyotning ma’naviy omili.
17. O‘zbekistonda aholi turli qatlamlarining o‘ziga xos ijtimoiy ongi va uni ijtimoiy,iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatish xususiyati.
18. Ijtimoiy ong milliy g‘oya va milliy mafkuraning negizi sifatida.
19. Ijtimoiy ong va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik aloqadorligi
20. Ijtimoiy ong ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash va mustahkamlashning muhim omili sifatida.
21. Sotsiologiya strukturasi shakllanishi.
22. Metodologiya tushunchasi.
23. Metod haqida umumiy tushuncha.
24. Umumilmiy metodlar (induksiya, deduksiya, analiz, sintez, tarixiylik, qiyosiy, eksperiment, kuzatish, gipotezalar tuzish va boshqalar).
25. Maxsus-sotsiologik va empirik metodlar.
26. Sotsiologik ma’lumotlarni to‘plash metodlari: so‘rov, kuzatish, sotsial eksperiment, hujjatlarni o‘rganish.
27. Shaxs, inson, individ tushunchalari.
28. Shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar.
29. Sotsializatsiya jarayoni: bosqich va davrlari.
30. Sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari.
31. “Jamiyat” tushunchasi, uning sifatiiy tasniflari.
32. O‘zbekistonda jamiyat hayotini erkinlashtirish.
33. Sotsial munosabatlar tushunchasi, strukturasi, mohiyati.
34. Sotsiologiyada sotsial institut tushunchasi.
35. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish
36. Din sotsiomadaniy institut sifatida.
37. O‘zbekistonda diniylik va dunyoviylik munosabatlari.

38. Zamonaviy jamiyatda dinning ijtimoiy ahamiyati va uning davlat bilan o‘zaro munosabati.
39. Iqtisodiy institutlar.
40. Ta’lim sotsial institut sifatida.
41. Sotsial struktura tushunchasi.
42. Global jahon hamjamiyati zamonaviy sotsiologiyaning ob‘yekti sifatida.
43. O‘zbekiston ijtimoiy-madaniy xususiyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy tanazzullarga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqishdagi ahamiyati.
44. Xulq atvorning institutlashgan va institutlashmagan darajasining muntazam tartibga solinishi.
45. Ijtimoiy me’yor tushunchasi.
46. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy me’yorlar, an’analar, urf-odatlar va modalar ta’sirining o‘ziga xosligi.
47. Ijtimoiy islohot va madaniyatlarning o‘zaro munosabati.
48. Madaniyat va milliy g‘oya.
49. Milliy kadriyatlarning tiklanishi.
50. Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarining o‘zaro munosabati va ularning aloqadorligi.
51. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonida ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalari.
52. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning ijrosi va belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish masalalari.
53. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonida ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash sohasidagi ustuvor yo‘nalishlari.
54. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonida inson kapitalini rivojlantirish masalalari.

## TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

### Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 1-tom. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. M 54. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – B.592.
2. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 2-tom. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. M 54. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – B.508.
3. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 3-tom. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. M 54. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – B.400.
4. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 4-tom. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. – B.408.
5. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 5-tom. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B.408.
6. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 6-tom. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B.536.
7. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. 7-tom. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B.408.
8. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – B.416.
9. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. M 54 – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B.464.
10. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – B.440.
11. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich.. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. -T.: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2024. 42-bet.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.//“Xalq so‘zi”. 2017-yil, 23-dekabr (№258 (6952) soni.
13. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-ommabop risola.–T.:2017.
14. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // <https://president.uz/uz/lists/view/7519>

### Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi – T.: Adolat, 2011.
3. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: O‘zbekiston, 1998.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2022-yil 8-avgust, O‘RQ – 788 – son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.

### Asosiy adabiyotlar

1. Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. Monografiya. – T.: Akademiya, 2019.
2. Bekmurodov M. O‘zbekistonda jamoatchilik fikri. – Toshkent:1999.
3. Sotsiologiya. Ma’ruzalar kursi. – Toshkent: 2000.
4. Sotsiologiya. O‘quv qo‘llanmasi. – Toshkent:2002.
5. Abu Nasir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 2020.
6. Aliyev B., Rafiqov G‘., Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshqalar. Sotsiologiya. (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent: TDYUI nashriyoti. 2006 .
7. Ганиева М.Х. Этносоциология. Учебное пособие для студ. высших учебных заведений. – Ташкент: «Университет». 2006.
8. Гараджа. В.И. Социология религии. – Москва: «Инфра-М». 2005.
9. Гиддингс Э. Социология. – Тошкент: 2002.
10. Кравченко А.И. Социология. – Москва: «ПЕРСЭ-Логос». 2006.
11. Sotsiologiya //O‘quv qo‘llanma. Ubaydullayeva R.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzayev O.B. va boshq. –Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002.
12. Sotsiologiya. Aliqoriyev N.S, Bekmurodov M.B., Ota-Mirzayev O.B., va boshq. – Toshkent: 2001.
13. Социология //Учебное пособие. Под редак. д.ф.н. Мухамедовой З.М. – Ташкент.: «San’bat». 2010.
14. Социология //Учебное пособие. Под редак. проф. Лаврененко В.Н. –Москва: «ЮНИТИ». 2012.
15. Тощенко Ж.Т. Социология. //Учебник. - Москва: «ЮНИТИ». 2012.
16. Saitxodjayev H.B. Sotsiologiya. Ma`ruzalar kursi. –Тошкент: «Академия». 2008.
17. Xolbekov A.J., Idivov U.Yu. Sotsiologiya: izohli lug‘at-ma’lumotnoma. –Toshkent: Ibn-Sino nomidagi nashriyot. 1999.
18. Xolbekov. A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi (o‘quv qo‘llanma). –Toshkent: “Akademiya”. 2007.
19. Ubaydullayeva R.A., Ota-Mirzayev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O‘quv-uslubiy qo‘llanma). –Toshkent: “Ijtimoiy fikr”. 2001.
20. Farfiyev B.A., Nurullayeva U.N. Sotsiologiya tarixi. (Uslubiy qo‘llanma). Toshkent: “Universitet”. 2009.
21. Фролов С.С. Общая социология. //Учебник. - Москва: «Проспект». 2012.
22. Sodiqova Sh.M. Boshqaruv sotsiologiyasi. (Darslik). – Toshkent: Akademiya, 2020.
23. M Bekmurodov. Farosat ilmi. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2022.
24. M Bekmurodov. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2023
25. A. Rahmatov, D. Musayev. “Ijtimoiy fanlar va sotsiologiya” (Toshkent, 2025).
26. Sh. To‘rayev “O‘zbekistonda ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi” (2024).
27. N. Hakimova “Gender sotsiologiyasi: nazariya va amaliyot” (2025).

### Internet resurslari

1. <http://www.lib.socio.msu.ru>
2. <http://www.socioline.ru>
3. <http://www.socio.rin.ru>
4. <http://www.sociologos.narod.ru>
5. <http://www.socionet.narod.ru>